<p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati (darsliklar, maqolalar, qo'llanmalar)</p>	<p>Babaev T.M. Yuqori molekulyar birikmalar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. — 528 bet.</p> <p>Moskva davlat universiteti (M.V. Lomonosov nomidagi), Kimyo fakulteti.</p> <p>Zaikin A.E. Polimer kompozitsion materiallar. — 2018. — 292 bet.</p> <p>Miracle D.B., Donaldson S.L. Composites. ASM Handbook, Vol. 21. — Chicago: ASM International, 2001.</p> <p>van Krevelen D.W., te Nijenhuis K. Properties of Polymers. — Elsevier B.V., 2009.</p> <p>Chanda M. Plastics Technology Handbook. — Taylor & Francis Group, LLC, 2018.</p> <p>Tadmor Z., Gogos C.G. Principles of Polymer Processing. 2nd ed. — Wiley, 2006</p> <p>Carraher C.E., Jr. Seymour/Carraher's Polymer Chemistry. 6th ed., revised and expanded. — New York; Basel: Marcel Dekker, Inc., 2003. — 902 p.</p> <p>Mirkomilov Sh.M., Bozorov N.I., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi.</p> <p>Askarov M.A., Rayikov A.S., Abdusamatova D.O. Polimerlar fizikasi va kimyosi. — Toshkent: Excellent Polygraphy, 2020.</p>

Band nomi	Analistik kimyoda organik reagentlarning qo'llanilishi
Modul nomi / belgilanishi	AKORQ304
Modul o'qitiladigan semestr(lar)	5
Modul uchun mas'ul shaxs (<i>aniq ism-sharifi ko'rsatiladi</i>)	Ahatov Alisher Ashur o'g'li, Kimyo fanlari falsafa doktori
O'qitish tili	O'zbek
O'quv dasturidagi o'rni (<i>majburiy / tanlov / mutaxassislik moduli</i>)	Tanlov
O'qitish usullari (<i>ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar, loyiha va boshqalar</i>)	Ma'ruza mashg'uloti, amaliy mashg'uloti, laboratoriya mashg'uloti
Umumiy o'quv yuklamasi (<i>kontakt soatlar, mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik bilan birga</i>)	- Umumiy yuklama 120 soat: auditoriya mashg'ulotlari 60 soat, ma'ruza 20 soat, amaliy mashg'uloti 10 soat, laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, - Mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik (soatlarda) 60 soat.
Kreditlar soni	4
Modulni o'rganish uchun zarur yoki tavsiya etiladigan boshlang'ich bilim va ko'nikmalar	<i>Noorganik kimyo, analitik kimyo, kompleks birikmalar kimyosi, organik kimyo, fizikaviy kimyo.</i>
Modul maqsadlari / kutilayotgan o'quv natijalari	<i>“Analitik kimyoda organik reagentlarning qo'llanilishi” fanining asosiy maqsadi – talabalarga analitik kimyoda qo'llaniladigan organik reagentlarning tuzilishi, tasnifi, funksional xususiyatlari va ularning kimyoviy tahlildagi o'rnini chuqur o'rgatish; organik reagentlar asosida kompleks hosil qilish, ekstraksiya, ion-juft hosil qilish, optik analiz va kompleksonometrik titrlash kabi zamonaviy analitik metodlarning nazariy va amaliy jihatlarini shakllantirishdir.</i>
— Bilimlar	<i>Talaba fan yakunida quyidagi nazariy bilimlarni egallaydi: Analitik kimyoda qo'llaniladigan organik reagentlarning tasnifi, analitik guruhlar tushunchasi, reagentlarning tuzilishi, xelat hosil qiluvchi va ion-juft hosil qiluvchi reagentlar xususiyatlarini biladi. Kompleks birikmalar, kompleks hosil bo'lish reaksiyalari, ularning mexanizmi, qattqlik, aniqlik, selektivlik va aniqlash chegarasi haqidagi nazariy asoslarni o'zlashtiradi. Organik moddalarni funksional guruhlari bo'yicha sifat va miqdoriy analiz qilishning kimyoviy asoslari, analogiya gipotezasi va gibrid/ aralash analiz metodlarining nazariy negizlarini biladi. Organik reagentlarning ekstraksiyada qo'llanilishi, suyuq-suyuqlik ekstraksiyasi, membranali ajratish, optik analiz metodlari va fotometrik aniqlashning nazariy tamoyillarini tushunadi. Metall ionlari, anionlar va komplekslarning analitik xatti-harakatlarini tushuntiruvchi asosiy nazariyalar, xromatografik ajralishning fizik-kimyoviy asoslari va zamonaviy tahlil usullarini biladi</i>
— Ko'nikmalar	<i>Fan doirasida o'quvchi quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi:</i>

	<p><i>Organik reagentlar bilan ishlash, laboratoriya jarayonlarini xavfsiz tashkil etish, tahlil uchun eritmalar tayyorlash va tajribalarni bajarish ko'nikmasiga ega bo'ladi.</i></p> <p><i>Metallar kationlari (K^+, Al^{3+}, Fe^{2+}, Fe^{3+}, Cu^{2+}, Co^{2+}, Zn^{2+} va boshqalar) hamda anionlarni (NO_3^-, I^-) organik reagentlar yordamida sifat tahlil qilish ko'nikmasi shakllanadi.</i></p> <p><i>Kompleksonometrik titrlash yordamida kalsiy, magniy, alyuminiy, rux va suv qattiqligini aniqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallaydi.</i></p> <p><i>Organik reagentlarning optik xossalardan foydalangan holda fotometrik va optik analiz o'tkazish, rangli reaksiyalarni amalda qo'llash ko'nikmalarini egallaydi.</i></p> <p><i>Organik reagentlar bilan ekstraksion, kompleks hosil qilish, ion-juft ajratish va membranali ajratish jarayonlarini amaliy tajriba orqali bajarish ko'nikmalari shakllanadi.</i></p> <p><i>Organik reagentlar asosida tahlil sxemalari tuzish, funksional guruhlar bo'yicha moddalarning reaksiyalarini prognozlash, tahlil natijalarini qayta ishlash va xatoliklarni baholash ko'nikmasini rivojlantiradi.</i></p>
<p>— Kompetensiyalar</p>	<p><i>Fan yakunida talaba quyidagi kompetensiyalarga ega bo'ladi:</i></p> <p><i>axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;</i></p> <p><i>yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;</i></p> <p><i>analitik kimyo, analizni umumiy nazariy asoslari; kimyoviy analizning metrologik asoslari: asosiy metrologik tushunchalar va tavsiflar: o'lchash, o'lchash usullari va asboblari, analizdagi xatoliklar klassifikatsiyasi: sistematik, tasodifiy, qo'pol, absolyut va nisbiy xatoliklar;</i></p> <p><i>analizning asosiy bosqichlari, analiz uchun usul tanlash va analiz sxemasini tuzish, analiz usulining asosiy tavsiflari: natijalarning to'g'riligi va takrorlanuvchanligi, sezgirlik koeffitsienti, miqdoriy aniqlashning quyi va yuqori chegaralari, o'lchash natijalarini matematik statistika yo'li bilan qayta ishlash, o'rtacha qiymat, dispersiya, standart chetlanish, nisbiy standart chetlanish, qayta takrorlanuvchanlik, aniqlik darajasi, extimollik chegarasi va intervali;</i></p> <p><i>organik moddalar tozaligini va fizik doimiyliklarini aniqlay olish, berilgan usullar yordamida tegishli birikmalardan organik moddalarni sintez qilish, organik birikmalarda boradigan reaksiya mexanizmlarini nazariy asoslay olish;</i></p>
<p>Modul mazmuni</p>	<p><i>Ma'ruza mashg'ulotlari 20 soat, 16,67 foiz.</i></p> <p><i>Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari:</i></p> <p><i>5-semestr</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <i>1. Analitik kimyoda organik reagentlar.</i> <i>2. Organik reagentlarni sinflanishi.</i> <i>3. Organik reagentlarda analitik guruhlar tushunchasining o'ziga xosligi.</i> <i>4. Kompleks birikmalar. Kompleks hosil qiluvchi reaksiyalar.</i>

5. Organik moddalarda analogiya gepotezasi.
6. Organik reagentlarning ekstraksiyasida qo'llanilishi.
7. Organik erituvchilar va ularning ekstraksiyaga ta'sir etuvchi xossalari.
8. Organik reagentlarning optik analiz metodlaridagi ahamiyati.
9. Ekstraksiyada yangi organik reagentlarni qo'llash. Metallarni organik reagentlar yordamida ekstraksion-fotometrik aniqlash.usullari.
10. Suyuq-suyuqlik ekstraksiyasi. Membranali ajratish usuli.

Amaliy mashg'ulotlari 10 soat, 8,33 foiz.

Amaliy mashg'ulotlari mavzulari.

5-semestr.

1. Nodir metallarni organik reagentlar yordamida ajratish va konsentrlashda qo'llaniladigan hisoblash usullari.
2. Metallni aniqlashda ishlatiladigan organik reagentlar ustida bajariladigan kvant kimyoviy hisoblashlar.
3. Metall – organik ligand sistemasidagi atom zaryadlarini va birikma spektrlarni hisoblash usullari.
4. Organometall komplekslarning tuzilishi va ularning turlari.
5. Organik reagentlarda kompleks hosil qilish reaksiyalari. Kislota-asos va kompleksometrik titrlash.

Laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, 25 foiz.

Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari.

5-semestr.

1. Laboratoriyada ishlashda xavfsizlik qoidalari.
2. Metall-organik indikatorlar yordamida metallar ionlarining sifat analizi.
3. Kaliy kationining organik reagentlar yordamida sifat analizi.
4. Alyuminiy kationining organik reagentlar yordamida sifat analizi.
5. Temir (II) kationining organik reagentlar yordamida sifat analizi.
6. Mis (II) kationlarining organik reagentlar yordamida sifat analizi.
7. Kobalt (II) kationlarining organik reagentlar yordamida sifat analizi.
8. Anilin yordamida yodid ionlarining sifat analizi.
9. Nitrat ionlarini difenilamin yordamida aniqlash.
10. Dolomit tarkibidagi kalsiy va magniy miqdorlarini aniqlash.
11. Eritmadagi rux yoki boshqa kationlar miqdorini edta eritmasi yordamida aniqlash.
12. Alyuminiy miqdorini kompleksometrik aniqlash.
13. Suvning umumiy qattiqligini kompleksometrik usulda aniqlash.

	<p>14. Organik reagentlarning optik analiz metodlarida qo'llanilishi.</p> <p>15. Sulfosalitsil kislota yordamida temir (III)ni aniqlash.</p>
<p>Baholash shakllari (og'zaki taqdimot, esse, test, yozma ish va boshqalar)</p>	<p>og'zaki taqdimot, esse, yozma ish, imtihan</p>
<p>O'qish va baholash talablari (modulni muvaffaqiyatli yakunlash shartlari)</p>	<p><i>Analitik kimyoda organik reagentlarning qo'llanilishi faniga 20 soat ma'ruza, 10 soat amaliy mashg'ulot, 30 soat laboratoriya mashg'ulotlari va 60 soat mustaqil ta'lim ajratilgan. Universitet nizomiga ko'ra, ushbu 120 soat yuklama hajmiga 4 kredit beriladi. Hemis dasturidagi kredit baholash tizimida maksimal ball 100 ball, o'zlashtirish chegarasi esa 60 foizdir. Joriy va oraliq nazoratlarda talaba jami 50 ball, yakuniy nazoratda esa 50 ball olishi mumkin.</i></p> <p><i>JN mezon:</i></p> <p><i>JN: Talaba amaliy mashg'ulotlarni bajarib, mavzu bo'yicha bilimlarni egallasa, har bir mavzuni to'liq bajarganligi uchun maksimal 2 ball beriladi. Demak, $5 \times 2 = 10$ ball.</i></p> <p><i>Laboratoriya mashg'ulotlari uchun har bir mavzuga 0,67 ball berib boriladi. Jami 10 ball to'playdi (15 ta mavzu \times $0,67$ ball = 10 ball). Umumiy JN — 20 ball.</i></p> <p><i>ON mezon (30 ball):</i></p> <p><i>ON: Oraliq nazorat ma'ruza mashg'uloti tugagandan so'ng o'tkaziladi. Oraliq nazoratda talaba og'zaki yoki yozma savollar asosida 12 ball olishi mumkin.</i></p> <p><i>Mustaqil ishlar modul jadvalida berilgan muddatlarda topshiriladi. Belgilangan muddatda topshirilmagan mustaqil ishlar qabul qilinmaydi. Modulda belgilangan 9 ta mustaqil ishning har biri 2 balldan baholanadi ($9 \times 2 = 18$ ball).</i></p> <p><i>Jami oraliq nazorat — 30 ball.</i></p> <p><i>ON ballarining konvertatsiyasi:</i></p> <p><i>Baho Ball O'zlashtirish</i></p> <p><i>YaN mezon (50 ball):</i></p> <p><i>YaN: Yakuniy nazorat yozma shaklda o'tkaziladi. Talabaga besh savoldan iborat variantlar taqdim etiladi. Ularning uchtasi mustaqil ta'limga oid savollardan iborat bo'ladi. Har bir savolga to'liq va to'g'ri yozilgan javob uchun 10 ball beriladi. Jami — 50 ball.</i></p>
<p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati (darsliklar, maqolalar, qo'llanmalar)</p>	<p>Donald C. Skoog, M. West. Fundamentals of Analytical Chemistry. Brooks/Cole, Cengage, 2014.</p> <p>Золотов Ю.А., Дорохова Е.Н., Фадеева В.И. и др. Основы аналитической химии. Кн. 2. М.: Высшая школа, 2002. — 324 с.</p> <p>Turayev X.X., Turabov N.T., Alimnazarov B.X. Analitik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari (sifat analizi). Toshkent: Universitet, 2020. — 212 b.</p> <p>Keihei Ueno, Toshiaki Imamura, K. L. Cheng. Handbook of Organic Analytical Reagents., 2019.</p> <p>King Abdulaziz University (KAU) (QS-149).</p> <p>Л.И. Ворончихина. Органические реагенты в современной химии. Тверь, 2016.</p>

<i>Band nomi</i>	Analizda xromatografik usullarning qo'llanilishi
<i>Modul nomi / belgilanishi</i>	AXUQ 304
<i>Modul o'qitiladigan semestr(lar)</i>	V
<i>Modul uchun mas'ul shaxs (aniq ism-sharifi ko'rsatiladi)</i>	Ahatov A. – <i>analitik kimyo kafedrası, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori</i>
<i>O'qitish tili</i>	<i>O'zbek</i>
<i>O'quv dasturidagi o'rni (majburiy / tanlov / mutaxassislik moduli)</i>	<i>Tanlov</i>
<i>O'qitish usullari (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar, loyiha va boshqalar)</i>	<i>Ma'ruza, amaliy, laboratoriya</i>
<i>Umumiy o'quv yuklamasi (kontakt soatlar, mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik bilan birga)</i>	- Umumiy yuklama 120 soat: auditoriya mashg'ulotlari 60 soat, shundan ma'ruza mashg'ulotlari 20 soat, amaliy mashg'ulotlari 10 soat, laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, - Mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik (soatlarda) 60 soat.
<i>Kreditlar soni</i>	4
<i>Modulni o'rganish uchun zarur yoki tavsiya etiladigan boshlang'ich bilim va ko'nikmalar</i>	Analitik kimyo, Organik kimyo.
<i>Modul maqsadlari / kutilayotgan o'quv natijalari</i>	“Analizda xromatografik usullarning qo'llanilishi” fanining maqsadi - talabalarga xromatografiyaning nazariy asoslari, turlari va amaliy imkoniyatlari haqida chuqur bilim berish, turli namunalar tarkibini sifat va miqdor jihatdan aniqlashda xromatografik usullarni to'g'ri tanlash va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Fan doirasida zamonaviy xromatografik usullar va analiz natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish usullari o'rgatiladi hamda talabalarining mustaqil analitik fikrlashi va amaliy malakalari rivojlantiriladi.
— <i>Bilimlar</i>	analizda xromatografik usullarning qo'llanilishi klassifikatsiyalari, asosiy sifat va miqdoriy tavsiflari, gibrid va aralash analiz metodlari tavsiflari, xromatografik ajralish jarayonining kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy nazariy asoslarini, xromatografiyaning turlari va ularni amalga oshirishni o'rgatish; gaz va suyuqlik xromatografiyasi, ionitlarni statik va dinamik almashinish sig'imini aniqlash, harakatli va harakatsiz fazalarining xossalari o'rganish; xromatografik ajralish jarayoniga turli omillarning ta'sirini urganish, xromatografik ajralish kattaliklarini xisoblab chikish buyicha ko'nikmalarni hosil qilish. Ilmiy-amaliy ishlarda xromatografik usullardan unumli foydalana olish.
— <i>Ko'nikmalar</i>	xromatografik tahlil usullarining harakatli va harakatsiz fazalarning agregat xolati, ajralish mexanizmi, va ishlash texnikasiga ko'ra klassifikatsiyalash; namunaning agregat holati va xossalari ko'ra xromatografik analiz usulini qo'llay olish;

	<p>xromatogrammalarni olish usullari (frontal, siqib chiqarish va elyuyent) hamda xromatogrammaning asosiy kattaliklari haqida ko'nikmaga ega bo'lish.</p>
— Kompetensiyalar	<p>talaba xromatografik tahlil natijalarini tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish, ajralish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ilmiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo'ladi.;</p> <p>xromatografiyaning nazariy asoslari, ajralish mexanizmlari va usullarini laboratoriya hamda ilmiy-amaliy ishlarda samarali qo'llay oladi;</p> <p>namunaning kimyoviy tabiatiga, agregat holatiga va tahlil maqsadiga ko'ra mos xromatografik usulni (gaz, suyuqlik, yupqa qavatli, ion almashinish, gel, affin va boshqalar) tanlay oladi;</p> <p>xromatogrammalarni olish (frontal, elyuyent, siqib chiqarish), asosiy xromatografik kattaliklarni hisoblash va xromatogrammalar asosida sifat va miqdoriy tahlil olib boradi;</p> <p>zamonaviy xromatografik va gibrid usullar (xromatografiya–mass-spektrometriya, molekulyar absorbsion xromatografiya va boshqalar) imkoniyatlarini ilmiy va amaliy masalalarni yechishda qo'llay oladi.</p>
Modul mazmuni	<p>Ma'ruza mashg'ulotlari 20 soat, 16.67 foiz. Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari: 5-semestr Xromatografiyaning asosiy tushunchalari va nazariy asoslari. 2. Gaz xromatografiyasi. 3. Suyuklik xromatografiyasining zamonaviy usullari. 4. Xromatografik ajratish kattaliklari. 5. Yupqa qavatli xromatografiyasi. 6. Qog'oz xromatografiyasi ularning turlari. Harakatchan va harakatsiz fazalar. 7. Absorbsion xromatografiya. 8. Ion almashinish xromatografiyasi. 9. Xromatografiya va mass-spektrometrik. 10. Eksklyuzion xromatografiya. Amaliy mashg'ulotlari 10 soat, 8.33 foiz. Amaliy mashg'ulotlari mavzulari. Affin xromatografiya. 2. Zamonaviy xromatografik va gibrid usullar. 3. Miqdoriy xromatografik analiz asoslari. 4. Komplekslanish xromatografiyasi. 5. Oksidlanish-qaytarilish xromatografiyasi. Laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, 25 foiz. Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari. 5-semestr. 1. Gaz xromatografiyasi. Spirtlar va efirlarni aniqlash. 2. Aromatik uglevodorodlar aralashmasining miqdor analizi. 3. Qog'oz xromatografiyasi yordamida Co(II), Mn(II) va Ni(II) kationlarini aniqlash. 4. Spirtlar aralashmasi namunasida xromatografik ajratish kattaliklari qiymatini hisoblash. 5. Xlororganik birikmalar miqdorini xromatografik usullar yordamida aniqlash.</p>

	<p>6. Fosfororganik birikmalarni yupqa qavatli xromatografik usullar yordamida aniqlash.</p> <p>7. Yupqa qavatli xromatografiya. Plastinkalarni tayyorlash. Namuna tayyorlash texnikasi.</p> <p>8. Yupqa qatlamli xromatografiya usulida aminokislotalar aralashmasi tahlili.</p> <p>9. Elyuyent xromatografiya va toza moddalar.</p> <p>10. Gel xromatografiyasiga oid tajribalar olib boorish.</p> <p>11. Molekulyar absorbsion xromatografiyasiga oid tajribalar olib borish. Statik va dinamik almashinish sig'implari.</p> <p>12. Oksidlanish–qaytarilish xromatografiyasi. Redoks-aktiv moddalarning ajralishi.</p> <p>13. Xromatografik analiz natijalarini statistik qayta ishlash. Xatoliklar va aniqlikni baholash.</p> <p>14. Murakkab namunalarning xromatografik tahlili. Oziq-ovqat, farmatsevtik yoki ekologik namunalar tahlili.</p> <p>15. Komplekslanish xromatografiyasi. Metall–ligand komplekslarining ajralishi.</p>
Baholash shakllari (og'zaki taqdimot, esse, test, yozma ish va boshqalar)	og'zaki taqdimot, esse, yozma ish, imtihon
O'qish va baholash talablari (modulni muvaffaqiyatli yakunlash shartlari)	<p><i>Talabani fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda</i></p> <p><i>qo'yidagi mezonlar tavsiya etiladi:</i></p> <p><i>a) (5) a'lo baho (90-100 ball) olish uchun talabani bilim darajasi qo'yidagilarga javob berishi lozim:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - <i>fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritma olsa;</i> - <i>fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas;</i> - <i>fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;</i> - <i>fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;</i> - <i>berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;</i> - <i>konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;</i> - <i>mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;</i> - <i>fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;</i> - <i>fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;</i> - <i>tarixiy jarayonlarni sharxlay bilsa;</i> <p><i>(4) yaxshi baho (70-89,9 ball) olish uchun talabani bilim darajasi qo'yidagilarga javob berishi lozim:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - <i>fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymas;</i> - <i>fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa;</i> - <i>fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa;</i> - <i>fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;</i> - <i>fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;</i> - <i>fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;</i>

	<ul style="list-style-type: none"> - fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy xujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa; v) (3) o'rta baho (60-69,9 ball) olish uchun talabning bilim darajasi qo'yidagilarga javob berishi lozim: <ul style="list-style-type: none"> - fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa; - fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa; - bayon qilish ravon bo'lmasa; - fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa; - fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa; g) qo'yidagi hollarda talabning bilim darajasi qoniqarsiz (2) qoniqarsiz (0-59,9 ball) baho bilan baholanishi mumkin: <ul style="list-style-type: none"> - fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa; - fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa; - fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa; - fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; - fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa; - fanni bilmasa.
<p>Tavsiya adabiyotlar (darsliklar, qo'llanmalar)</p> <p>etiladigan ro'yxati maqolalar,</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Turabov N.T., Analitik kimyo. Darslik. Toshkent, "Go To Print" nashriyoti, 2020, 376 b. 2. Золотов Ю.А., Дорохова Е.Н., Фадеева В.И. и др. Кн. 2 Основы аналитической химии. М.: "Высшая школа" 2002 324с. 3. Пругло Г.Ф., Фёдорова О.В., Смит Р.А. Хроматографические методы анализа: учебное пособие / ВШТЭ СПбГУПТД. - СПб., 2017 - 85 с. 4. Гиндуллина Т.М., Дубова Н.М. Хроматографические методы анализа: учебно-методическое пособие / –Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2010 – 80 с. 5. E.A.Abduraxmanov, E.A.Ruziyev, A.Quvatov. Analitik kimyo. Darslik.– Samarqand: SamDU nashri, 2022, – 720 b. 6. Donald Ckoog, M. West. Fundamentals of Analytical Chemistry Brouks.Cole. Cengage, 2014.

<i>Band nomi</i>	Analizda ekstraksion va sorbsion usullarini qo'llanilishi
<i>Modul nomi / belgilanishi</i>	AXUQ 304
<i>Modul o'qitiladigan semestr(lar)</i>	V
<i>Modul uchun mas'ul shaxs (aniq ism-sharifi ko'rsatiladi)</i>	Tillayev X.R. – <i>analitik kimyo kafedrasi, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori</i>
<i>O'qitish tili</i>	<i>O'zbek</i>
<i>O'quv dasturidagi o'rni (majburiy / tanlov / mutaxassislik moduli)</i>	<i>Tanlov</i>
<i>O'qitish usullari (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar, loyiha va boshqalar)</i>	Noorganik kimyo, Analitik kimyo, Fizik kimyo.
<i>Umumiy o'quv yuklamasi (kontakt soatlar, mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik bilan birga)</i>	- Umumiy yuklama 120 soat: auditoriya mashg'ulotlari 60 soat, shundan ma'ruza mashg'ulotlari 20 soat, amaliy mashg'ulotlari 10 soat, laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, - Mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik (soatlarda) 60 soat.
<i>Kreditlar soni</i>	4
<i>Modulni o'rganish uchun zarur yoki tavsiya etiladigan boshlang'ich bilim va ko'nikmalar</i>	Analitik kimyo, Organik kimyo.
<i>Modul maqsadlari / kutilayotgan o'quv natijalari</i>	<p>“Analizda ekstraksion va sorbsion usullarini qo'llanilishi” fanining maqsadi talabalarga analitik kimyoda moddalarning ajratilishi va konsentrlanishini ta'minlovchi ekstraksion va sorbsion usullarning nazariy asoslari hamda amaliy qo'llanilishini chuqur o'rgatishdan iborat.</p> <p>Mazkur fan orqali talabalar suyuqlik–suyuqlik va qattiq fazali ekstraksiya, ion-almashinish, adsorbsiya, kompleks hosil qilishga asoslangan ajratish jarayonlarining mexanizmlari, ularning selektivligi, sezgirligi va aniqligiga ta'sir etuvchi omillarni o'zlashtiradilar.</p> <p>Shuningdek, fan talabalarda mikro miqdordagi komponentlarni aniqlash uchun optimal ekstraksion va sorbsion usullarni tanlash, tajribaviy ma'lumotlarni tahlil qilish, analitik jarayonlarni optimallashtirish hamda ekologiya, sanoat, biologiya, farmatsiya va oziq-ovqat tahlilida ushbu usullardan samarali foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishni maqsad qiladi.</p>
— Bilimlar	<p>ekstraksion va sorbsion usullarning nazariy asoslarini, ularning analitik kimyodagi o'rnini va ahamiyatini biladi;</p> <p>suyuqlik–suyuqlik va qattiq fazali ekstraksiya mexanizmlarini, taqsimlanish qonunlari va ularni ifodalovchi matematik munosabatlarni tushunadi;</p> <p>adsorbsiya va ion-almashinish jarayonlarining fizik-kimyoviy mohiyatini, izoterma turlarini (Langmyur, Freyndlix va boshqalar) biladi;</p>

	<p>ekstraksiya va sorbsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi asosiy omillarni (pH, erituvchi tabiati, kompleks hosil bo'lishi, temperatura, vaqt, fazalar nisbati) tushuntira oladi;</p> <p>zamonaviy sorbentlar va ekstragentlarning turlari, ularning xossalari hamda qo'llanish sohalari haqida tasavvurga ega bo'ladi.</p>
— Ko'nikmalar	<p>ekstraksiya va sorbsion usullar asosida analitik masalalarni yechish uchun optimal sharoitlarni tanlay oladi;</p> <p>turli sorbentlardan foydalanib moddalarning adsorbsiyasi va desorbsiyasini amalda qo'llay oladi;</p> <p>ekstraksiya va sorbsiya jarayonlarining samaradorligini hisoblaydi va baholaydi;</p> <p>tajriba natijalarini jadval, grafik va matematik usullar yordamida qayta ishlaydi;</p> <p>analitik asbob-uskunalar (UV-Vis spektrofotometr, AAS, pH-metr va boshqalar) bilan birgalikda ekstraksiya va sorbsion bosqichlarni integratsiyalab ishlata oladi;</p>
— Kompetensiyalar	<p>fazalar hajmi nisbati, pH, vaqt va haroratning ekstraksiya samaradorligiga ta'sirini o'rganish hamda turli ekstragentlarning kimyoviy tabiatini solishtirib baholash;</p> <p>ajratish samaradorligini oshirish uchun jarayon parametrlarini optimallashtirish hamda Analitik sezgirlikni oshirish uchun ko'p bosqichli ekstraksiya yoki sorbsiya sxemalarini taklif qilish;</p> <p>suyuqlik–suyuqlik ekstraksiyasida fazalararo taqsimlanish koeffitsientini eksperimental aniqlash;</p> <p>sorbsiyaning fizik-kimyoviy nazariyasi, adsorbsiya izotermalari (Langmyur, Freyndlix va boshqalar) va ion-almashinish mexanizmlarini izohlash;</p> <p>ekstraksiya jarayonlarining molekulyar mexanizmlarini (kompleks hosil bo'lish, ion juftlari, solvatsiya) va ekstragentlarning kimyoviy xossalari tahlil qilish.</p>
Modul mazmuni	<p><i>Ma'ruza mashg'ulotlari 20 soat, 16.67 foiz.</i></p> <p><i>Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari:</i></p> <p><i>5-semestr</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Analitik kimyoda ekstraksiya va sorbsion ajratish jarayonlarining o'rni, maqsadi va vazifalari. 2. Suyuqlik–suyuqlik ekstraksiyasining fizik-kimyoviy mohiyati. 3. Ekstraksiya jarayonlarining molekulyar mexanizmlari va ekstragentlarning kimyoviy xossalari. 4. Ekstraksiya jarayonlarining kinetikasi va parametrlarini optimallashtirishning fizik-kimyoviy asoslari. 5. Ko'p bosqichli ekstraksiya jarayonlari va analitik sezgirlikni oshirish usullari. 6. Sorbsiyaning fizik-kimyoviy nazariyasi. 7. Sorbentlarning kimyoviy tuzilishi va sorbsion xossalari. 8. Zamonaviy ekstraksiya va sorbsion usullar: kimyoviy mexanizmlar va analitik imkoniyatlar. 9. Ekstraksiya va sorbsiya jarayonlarining murakkab obyektlar tahlilidagi qo'llanilishi. 10. Ekstraksiya va sorbsion analitik metodlarning metrologik tavsifi. <p><i>Amaliy mashg'ulotlari 10 soat, 8.33 foiz.</i></p>

	<p><i>Amaliy mashg'ulotlari mavzulari.</i></p> <p>16. Ekstraksiya jarayonlari uchun asosiy analitik kattaliklarni hisoblash (taqsimlanish koeffitsienti, ekstraksiya darajasi, konsentrlash koeffitsienti).</p> <p>17. Ekstraksiya jarayonida omillarning (pH, fazalar nisbati, ekstraksiya soni) samaradorlikka ta'sirini masalalar asosida tahlil qilish.</p> <p>18. Bir martalik va ko'p martalik ekstraksiyani hisobiy misollar va grafiklar yordamida taqqoslash.</p> <p>19. Sorbsion jarayonlar uchun analitik ko'rsatkichlarni hisoblash (sorbsion sig'im, tozalash darajasi, samaradorlik).</p> <p>20. Ekstraksiya va sorbsiya tajribalari natijalarini statistik qayta ishlash (o'rtacha qiymat, og'ish, nisbiy xatolik, grafik tahlil).</p> <p><i>Laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, 25 foiz.</i></p> <p><i>Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari.</i></p> <p><i>5-semestr.</i></p> <p>16. Suyuqlik–suyuqlik ekstraksiyasida moddaning fazalararo taqsimlanish koeffitsientini aniqlash.</p> <p>17. Ekstraksiya jarayonida fazalar hajmi nisbatining ajratish samaradorligiga ta'sirini o'rganish.</p> <p>18. Ekstraksiya jarayonida muhit pH ning ajratish samaradorligiga ta'sirini tadqiq qilish.</p> <p>19. Ekstragentlarning kimyoviy tabiatining ekstraksiya samaradorligiga ta'sirini taqqoslab baholash.</p> <p>20. Bir martalik va takroriy ekstraksiya jarayonlarining samaradorligini solishtirish.</p> <p>21. Ekstraksiya jarayonining vaqt omiliga bog'liqligini eksperimental o'rganish.</p> <p>22. Ekstraksiya jarayoniga haroratning ta'sirini baholash.</p> <p>23. Sorbsiyaning asosiy qonuniyatlarini eksperimental o'rganish.</p> <p>24. Sorbsiya jarayonining kinetik xususiyatlarini tadqiq qilish.</p> <p>25. Turli sorbentlarning tozalash samaradorligini taqqoslab baholash.</p> <p>26. Sorbent miqdorining sorbsiya jarayonining samaradorligiga ta'sirini o'rganish.</p> <p>27. Ion-almashinish sorbsiyasi jarayonini oddiy sharoitda eksperimental kuzatish.</p> <p>28. Ekstraksiya va sorbsiya usullarini ketma-ket qo'llash orqali eritmani tozalash.</p> <p>29. Sun'iy tayyorlangan model eritmalarini ekstraksiya yoki sorbsiya usullari yordamida tozalash.</p> <p>30. Ekstraksion va sorbsion jarayonlar natijalarini statistik qayta ishlash va baholash.</p>
Baholash shakllari (og'zaki taqdimot, esse, test, yozma ish va boshqalar)	<i>og'zaki taqdimot, esse, yozma ish, imtihon</i>
O'qish va baholash talablari (modulni muvaffaqiyatli yakunlash shartlari)	<p><i>Talabning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda</i></p> <p><i>qo'yidagi mezonlar tavsiya etiladi:</i></p> <p><i>a) (5) a'lo baho (90-100 ball) olish uchun talabning bilim darajasi qo'yidagilarga javob berishi lozim:</i></p>

	<ul style="list-style-type: none"> - faning mohiyati va mazmunini to'liq yoritma olsa; - fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas; - fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa; - fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon etma olsa; - berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa; - konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa; - mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa; - fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa; - fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa; - tarixiy jarayonlarni sharxlay bilsa; <p>(4) yaxshi baho (70-89,9 ball) olish uchun talabaning bilim darajasi qo'yidagilarga javob berishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - faning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymas; - fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa; - fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa; - fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa; - fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa; - fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa; - fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy xujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa; <p>v) (3) o'rta baho (60-69,9 ball) olish uchun talabaning bilim darajasi qo'yidagilarga javob berishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa; - fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmas; - bayon qilish ravon bo'lmasa; - fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa; - fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa; <p>g) qo'yidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz (2) qoniqarsiz (0-59,9 ball) baho bilan baholanishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> - fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa; - fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa; - fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa; - fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; - fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa; - fanni bilmasa.
<p>Tavsiya adabiyotlar (darsliklar, qo'llanmalar)</p>	<p>etiladigan ro'yxati maqolalar,</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abduraxmanov E.A., Ruziyev E.A., Quvatov A. Analitik kimyo. Darslik.– Samarqand: SamDU nashri, 2022, – 720 b. 2. Turabov N.T. Analitik kimyo : darslik. – Toshkent, 2023. – 448 b

3. Turabov N.T. Kimyoviy ajratish va konsentrlash : o'quv qo'llanma. – Toshkent : Fidokor yosh avlod, 2023. – 176 b.

4. Dean J. R. Extraction techniques in analytical sciences. – Chichester : John Wiley & Sons, Ltd., 2009. – 281 p.

Band nomi	Oraliq metallar kimyosi
Modul nomi / belgilanishi	OMK304
Modul o'qitiladigan semestr(lar)	5
Modul uchun mas'ul shaxs (aniq ism-sharifi ko'rsatiladi)	Ochildiyev Sherzod Sherali o'g'li, Noorganik kimyo kafedrası o'qituvchisi
O'qitish tili	O'zbek
O'quv dasturidagi o'rni (majburiy / tanlov / mutaxassislik moduli)	Tanlov
O'qitish usullari (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar, loyiha va boshqalar)	Ma'ruza mashg'uloti, laboratoriya mashg'uloti
Umumiy o'quv yuklamasi (kontakt soatlar, mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik bilan birga)	- Umumiy yuklama 120 soat: auditoriya mashg'ulotlari 60 soat, ma'ruza 30 soat, laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, - Mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik (soatlarda) 60 soat.
Kreditlar soni	4
Modulni o'rganish uchun zarur yoki tavsiya etiladigan boshlang'ich bilim va ko'nikmalar	<i>Noorganik kimyo, kompleks birikmalar kimyosi, kimyo tarixi va metadologiyasi.</i>
Modul maqsadlari / kutilayotgan o'quv natijalari	<i>Ushbu fan talabalarda d-elementlarning atom tuzilishi, kimyoviy xossalari, birikmalari, kompleks va organometall birikmalarining hosil bo'lish qonuniyatlari hamda ularning ekologik jihatlarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan fundamental va amaliy bilimlarni shakllantirishni maqsad qiladi. Shuningdek, laboratoriya mashg'ulotlari orqali d-metall birikmalarini sintez qilish, ularning sifat va miqdoriy tahlilini bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish ko'zda tutiladi.</i>
— Bilimlar	<i>Fan yakunida talaba quyidagi nazariy bilimlarga ega bo'ladi: Metallarning umumiy tavsifi, metall bog'lanish, kristall panjaralar, metallarning umumiy fizik-kimyoviy xossalari. d-elementlarning davriy sistemadagi o'rni, elektron tuzilishi va ionlanish xususiyatlari. 3–12-guruh d-elementlarining atom tuzilishi, okidlanish darajalari, amplitud orbital xususiyatlari, birikmalari va ularning asosiy xossalari. f-elementlarning (lantanidlar va aktinidlar) umumiy tavsifi va kimyosi. d-metallarning kompleks birikmalari, koordinatsion soni, ligandlar, geometriyasi, elektron tuzilishi (CEF, MOL), barqarorlik qonuniyatlari. d-elementlarning organometall birikmalari, ularning sintez usullari, xossalari va qo'llanish sohalari. d-metallarning gidrometallurgiyasi, pirometallurgiyasi, asosiy olish jarayonlari. d-elementlarning ekologik ta'siri, atrof-muhitdagi tarqalishi va monitoring usullari.</i>

	<i>Laboratoriya mashg'ulotlarida bajariladigan jarayonlar: galvanik elementlar, elektroliz, kompleks birikmalar sintezi, miqdoriy tahlil usullari.</i>
— Ko'nikmalar	<i>d-elementlarning tuzilishi, kimyoviy xossalari, reaksiyaga kirishish qobiliyatini ilmiy asosda tushuntirish. d-metallarning birikmalarini sintez qilish va sifat/miqdoriy tahlil usullarini mustaqil bajarish. Kompleks birikmalar va organometall birikmalarni hosil bo'lish mexanizmini tahlil qilish. d-metallarning ekologik ta'siri va monitoring usullarini amaliy qo'llay olish. Analitik metodlar yordamida metall ionlarini aniqlash, ularning tarkibini baholash.: Olingan tajriba natijalari asosida ilmiy xulosa va hisobotlar tayyorlay olish.</i>
— Kompetensiyalar	<i>d- va f-elementlarning elektron tuzilishi, kimyoviy xossalari va davriy jadvaldagi o'rnini tushuntira oladi; d-metallarning kompleks va organometall birikmalarini sintez qilish hamda ularning xossalarini izohlay oladi; metallarning elektrokimyoviy xossalarini (faollik, galvanik element, elektroliz) amaliy tajribalar asosida qo'llay oladi; oraliq metallar birikmalarini laboratoriya sharoitida olish, tahlil qilish va natijalarni baholay oladi; d-metallarning ekologik ahamiyatini tushunadi va muhit obyektlarida ularni aniqlash usullarini qo'llay oladi.</i>
Modul mazmuni	<i>Ma'ruza mashg'ulotlari 30 soat, 25 foiz.</i> <i>Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari:</i> <i>5-semestr</i> <ol style="list-style-type: none"> 1. Kirish. Metallarning umumiy tavsifi. 2. d-elementlarning umumiy tavsifi. Uchinchi guruhning d-elementlari. 3. To'rtinchi guruhning d-elementlari. 4. Beshinchi guruhning d-elementlari. 5. Oltinchi guruhning d-elementlari. 6. Yettinchi guruhning d-elementlari. 7. Sakkizinchi guruhning d-elementlari. 8. Sakkizinchi guruhning d-elementlari. 9. Sakkizinchi guruhning d-elementlari. 10. Birinchi guruhning d-elementlari. 11. Ikkinchi guruhning d-elementlari. 12. f-elementlarning umumiy tavsifi. 13. d-metallarning kompleks birikmalari. Elektron tuzilishi va xossalari. 14. d-elementlarning organometall birikmalar kimyosi. 15. Oraliq metallar kimyosi va ekologiya. <i>Laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, 25 foiz.</i> <i>Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari.</i> <i>5-semestr.</i> <ol style="list-style-type: none"> 1. Metallarning aktivligini tekshirish. Galvanik element tayyorlash. Metall tuzlarining suvdagi eritmalarini elektroliz qilish. 2. Skandiy birikmalarining olinishi va xossalari. 3. Titan va uning birikmalari. Olinishi va xossalari. 4. Vanadiy birikmalari. Olinishi va xossalari. 5. Xrom birikmalarining olinishi va xossalari.

	<p>6. Marganes birikmalari. Olinishi va xossalari</p> <p>7. Temir birikmalari. Olinishi va xossalari.</p> <p>8. Kobalt birikmalarining olinishi va xossalari.</p> <p>9. Nikel birikmalarining olinishi va xossalari.</p> <p>10. Mis va kumush birikmalarining xossalari.</p> <p>11. Rux, kadmiy va simobning birikmalari va xossalari.</p> <p>12. Seriy birikmalarining xossalari.</p> <p>13. d-elementlarning kompleks birikmalarini sintez va analiz qilish usullari.</p> <p>14. d-elementlarning organometall birikmalarini sintez va analiz qilish usullari.</p> <p>15. Atrof-muhit obyektlari tarkibidan d-metallarning miqdorini aniqlash usullari.</p>
<p>Baholash shakllari (og'zaki taqdimot, esse, test, yozma ish va boshqalar)</p>	<p><i>og'zaki taqdimot, esse, yozma ish, imtihon</i></p>
<p>O'qish va baholash talablari (modulni muvaffaqiyatli yakunlash shartlari)</p>	<p><i>Oraliq metallar kimyosi fani bo'yicha Kimyo ta'lim yo'nalishi, V semestr V semestr davomida fan uchun 30 soat ma'ruza, 30 soat laboratoriya mashg'ulotlari hamda 60 soat mustaqil ta'lim ajratilgan. Universitet nizomiga ko'ra, ushbu 120 soatlik umumiy yuklama 4 kreditga teng.</i></p> <p><i>Hemis dasturidagi kredit baholash tizimida fan 100 ballik reyting asosida baholanadi, o'zlashtirishning minimal chegarasi – 60 %.</i></p> <p><i>Baholash tizimi</i></p> <p><i>Talaba joriy va oraliq nazoratlar bo'yicha jami 50 ball, yakuniy nazorat bo'yicha esa 50 ball to'plashi mumkin.</i></p> <p><i>1. Joriy nazorat (JN) — 20 ball</i></p> <p><i>Talaba laboratoriya mashg'ulotlarini to'liq bajarsa, mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni egallasa, maksimal 20 ball olishi mumkin.</i></p> <p><i>2. Oraliq nazorat (ON) — 30 ball</i></p> <p><i>Talaba mustaqil ish topshiriqlarini modul jadvali asosida belgilangan muddatda topshiradi. O'z vaqtida topshirilmagan mustaqil ishlar qabul qilinmaydi.</i></p> <p><i>Modul bo'yicha mustaqil ta'lim va mustaqil ish uchun 18 ball ajratilgan.</i></p> <p><i>Semestr davomida 1 ta oraliq nazorat o'tkaziladi.</i></p> <p><i>Har bir oraliq nazoratda talaba yozma yoki og'zaki savollar orqali 6 ball to'plashi mumkin.</i></p> <p><i>Umumiy oraliq nazorat ballari — 12 ball.</i></p> <p><i>3. Yakuniy nazorat (YaN) — 50 ball</i></p> <p><i>Yakuniy nazorat yozma shaklda o'tkaziladi. Talabaga beshta savoldan iborat variantlar taqdim etiladi, ulardan uchta savol mustaqil ta'lim mavzulariga tegishli bo'ladi.</i></p> <p><i>Har bir to'liq va asosli yozma javob uchun 10 ball beriladi.</i></p> <p><i>Yakuniy nazorat bo'yicha maksimal ball — 50 ball.</i></p>
<p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati (darsliklar, maqolalar, qo'llanmalar)</p>	<p>Atkins, W., Overton, T.L., Rourke, J.P., Weller, M.T., Armstrong, F.A. Inorganic Chemistry, Sixth Edition. Oxford: Oxford University Press, 2014. ISBN 978-1-4292-9906-0. 901 p.</p>

Miessler, G.L., Fischer, P.J. Inorganic Chemistry, Fifth Edition. St. Olaf College, Macalester College, 702 p. ISBN-10: 0-321-81105-4.

Housecroft, C.E., Sharpe, A.G. Inorganic Chemistry, 4th Edition. 2012. ISBN 978-0-273-74278-4. 1257 p.

Parpiyev, N.A., Muftaxov, A.G., Raxiinov, X.R. Anorganik kimyo. Toshkent: O'zbekiston, 2003. 504 b.

Parpiyev, N.A., Kadirova, Sh.A., Nuraliyeva, G.A., Raxmonova, D.S. Noorganik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Noshir' nashriyoti, 2019. 272 b.

<i>Band nomi</i>	Kristallokimyo
<i>Modul nomi / belgilanishi</i>	<i>KM304</i>
<i>Modul o'qitiladigan semestr(lar)</i>	<i>V</i>
<i>Modul uchun mas'ul shaxs (aniq ism-sharifi ko'rsatiladi)</i>	<i>Nazarov Y.E. – noorganik kimyo kafedrası, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori</i>
<i>O'qitish tili</i>	<i>O'zbek</i>
<i>O'quv dasturidagi o'rni (majburiy / tanlov / mutaxassislik moduli)</i>	<i>Tanlov</i>
<i>O'qitish usullari (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar, loyiha va boshqalar)</i>	<i>Ma'ruza, laboratoriya</i>
<i>Umumiy o'quv yuklamasi (kontakt soatlar, mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik bilan birga)</i>	<i>- Umumiy yuklama 120 soat: auditoriya mashg'ulotlari 60 soat, shundan ma'ruza mashg'ulotlari 30 soat, laboratoriya mashg'ulotlari 30 soat, Mustaqil ta'lim va imtihonga tayyorgarlik (soatlarda) 60 soat.</i>
<i>Kreditlar soni</i>	<i>4</i>
<i>Modulni o'rganish uchun zarur yoki tavsiya etiladigan boshlang'ich bilim va ko'nikmalar</i>	<i>Atom tuzilishi ,elektron qavatlar, orbitalar, kvant sonlar ; Ion bog'lanish,kovalent bog'lanish,metall bog'lanish,vodorod bog'lanish; Elektrmanfiylik, atom radiusi, ion radiusi; Oksidlanish darajasi; Periodik qonun va elementlar xossalari;</i>
<i>Modul maqsadlari / kutilayotgan o'quv natijalari</i>	<i>Talabalarga moddalarning kristall tuzilishini aniqlash va tushuntirish, Kristall tuzilish bilan modda xossalari o'rtasidagi bog'lanishni ochib berish. Talabalarda yangi materiallar (yarimo'tkazgichlar, keramikalar, qattiq jismdagi supero'tkazuvchilar) ishlab chiqishga asos yaratish hamda turli materiallarni o'rganish xamda ularni amaliyotga tadbiiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</i>
<i>— Bilimlar</i>	<i>talabalarga kristall tuzilishlarning asosiy turlarini va ularning kimyoviy xossalari bilan bog'liqligini tanishtirish; kristallarning strukturasi tasniqlash va simmetriya elementlarini aniqlash ko'nikmasini rivojlantirish; kristall tuzilishdagi defektlar va ularning material xossalari ta'sirini tahlil qila olish; oddiy va murakkab shakllar, ochiq va yopiq shakllar, ularning sinfi, singoniya va tabaqalarga bo'linishi haqida tushunchaga ega bo'lish.</i>
<i>— Ko'nikmalar</i>	<i>Rentgen tuzilishi tahlili asosida kristall panjara parametrlarini aniqlay olish; yangi materiallar yaratish uchun kristallokimyoviy yondashuvlarni qo'llay olish;</i>

	<p><i>laboratoriya sharoitida kristall tuzilmalarni tadqiq qilish va natijalarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lish;</i> <i>kristallarni o'sishiga begona ionlarning ta'sirini o'rganish, koordinatsion birikmalarning kristallarini olish.</i></p>
— Kompetensiyalar	<p><i>talabalar kristall tuzilma, panjara va simmetriya elementlarini tushuntira oladi. panjara parametrlari, zichlik, koordinatsiya soni va ion radiuslari nisbatini hisoblay oladi;</i> <i>rentgen difraksiyasi natijalarini va kristall tuzilmalarni tahlil qiladi. kristall tuzilma va xossalarning bog'liqligini amaliy masalalarda qo'llay oladi;</i> <i>kristall tuzilishlarning asosiy turlarini va ularning kimyoviy xossalari bilan bog'liqligini tushuntira oladi;</i> <i>koordinatsion birikmalarning monokristallarini o'stira oladi;</i> <i>kristall moddalarning kimyoviy bog' tabiatini tahlil qila oladi.</i></p>
